ISSN 2181-8258

DOI prefiksi: 10.69691

ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

# Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

11 (74)

2025

**TAMADDUN NURI jurnali**

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

**MUASSISLAR:** Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

**HAMKORLARIMIZ:**
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti

**TAHRIR HAY'ATI:**
**BOSH MUHARRIR:**
Munavvara KURBANBAYEVA
**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Anvar ALLAMBERGENOV
**TEXNIK MUHARRIR:**
Islombek ABDIKHAKIMOV
**BO'LIM MUHARRIRI:**
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)
Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent
Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)
Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Safo MATJONOV, p.f.d., prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
**Adabiy maslahatchi:**
Guliston MATYOQUBOVA
**Rassom:**
Alibek ABDURAHMONOV
**Sahifalovchi-bezovchi:** G'iyosiddin O'NAROV

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani.
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2025-yil 29-noyabrda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2025-yil, 11-son (74).
Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

10.69691 DOI

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING

## 10.00.00 - "FILOLOGIYA"

**Karimova Mahliyo Ataboyevna.** Zamonaviy o'zbek matbuotida metaforik ifoda va uning kognitiv-pragmatik tahlili..........34

**Jo'raboyeva Saboxon Anvarxanovna.** Atoiy g'azallarida tasavvuf maqomotlari..........44

**Яркулова Фотима.** Иноязычные заимствования в русском языке: проблема нормы и употребление..........51

**Seytniyazova Guljaxan Mirzagaliyevna.** Tarjima va madaniy identitet..........58

**Xasan Shuhratovich Gafforov.** Ziddiyatli vaziyatlardagi nutqiy stereotiplarning pragmalingvistik xususiyatlari va talqini..........61

**Sanaqulova Fayoza.** Reklama matnlarida metafora hodisasi..........81

**Karimova Nafisa.** Badiiy asarning yozilish sabablariga doir nazariy tahlillar..........106

*Saparmatov Omar Shamurat ogli. Nesibeli Baltaniyazovanıń "Baxıtlı kúndi izlep" povestinde kelbetliklerdiń qollanılıw ózgesheligi................113*

**Norqobilova Nigora Uralovna.** Olqish va qarg'ish so'zlar paremiologik birlik sifatida..........120

**Mamirova Xayriniso Komiljon qizi.** Metonimik birliklar o'zlashtirilishining eksperimental tadqiqi..........150

**Рахимова Гўзал Юлдашовна.** Ўзбек ва инглиз тилларида редупликативларнинг сўз туркумлари билан ифодаланиши таҳлили..........166

**Yusupova Kamola Qobiljon qizi.** Reklama diskursining lingvistik va stilistik xususiyatlari..........170

**Olimboyeva Komila Umarbek qizi.** Xonqa shevasida sifatlar va ularning ma'noviy guruhlari..........174

**Djumaniyazova Luiza Sultonboyevna.** Til va madaniyatning etnolingvistik tahlili (o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida)..........177

**Hilol Abdul Roziq Sodiq.** Ikkinchi til o'rganuvchilarining ehtiyojlarini qondirishda semantik nazariyalarning o'rni: arab tili misolida..........201

**Ro'ziyeva Nilufar Kamtarovna.** Sharq adabiyotida rad etish strategiyalari -Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari tahlilida..........205

**Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna.** Ingliz va o'zbek postmodernizmida o'zlikni anglash fenomenining psixologik va badiiy tahlil (J. Faulz va O'.Hoshimov asarlari asosida)..........209

**Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna.** "Yolg'izlik" konseptining lingvopragmatik xususiyatlari (o'zbek va ingliz tili matnlari misolida)..........212

**Dilshod Bobojonov Jumaqul o'g'li.** Reklama matnlarida konnotativ birliklarning kommunikativ vazifasi..........215

**Rashidova Feruza Rasulovna.** Opa-singil brontelar romanlarida badiiy psixologizmning ichki monolog tasviri..........218

**Azatova Jamila Azatovna.** Tábiyat penen adam arasindaǵi tragizm kórinisi (Allanazar Ábdievtiń "Iyt hám Adam yamasa Ashlıq sınaǵı" povestiniń kórkem dúzilisi)..........242

**Karimov Ulug'bek Nusratovich.** «Simob» romanida qahramonning ichki dunyosining poetik tasviri..........246

**Xakimova Sadoqat Dilshodbekovna.** Ingliz va o'zbek tilidagi rang komponentli iboralarning konseptual tahlili..........251

**Rashidova Gulshoda.** O'zbek millatiga xos irimlarning semantik xususiyatlari..........257

**Jumanyazova Muxabbat Xusinovna.**Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasi rivojlantirish metodika268

**Бабаджанова Азиза Рустамовна.** Изучение лирики Бориса Пастернака и Абдуллы Орипова в литературоведении..........271

**Усманова Камила Шухрат кизи.** Особенности передачи русской действительности XIX века в художественном переводе (на материале произведений М.Л.Михайлова)..........277

**Choriyeva Dilafruz.** Tarjimada hazil va istehzo: ingliz gazetalarining pragmatik tahlili..........280

**Hamzayeva Zebo Murodjon qizi.** Epistolyar roman genezisi va taraqqiyoti..........283

**Xudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna.** O'zbek raqsida bosh va yuz harakatlarini ingliz tiliga tarjima qilishning lingvomadaniy asoslari..........287

**Abdullayeva Gulandom Anvarovna.** Turk va o'zbek tilidagi o'simlik nomlarining lisoniy hamda madaniy tadqiqi..........294

**Masharipova Farida Zokirovna.** Erkin Samandar nasriy asarlarida takrorning lingvopoetik imkoniyatlari..........297

**Sharasulova Shirin.** O'zbek tilida enantosemik metaforalarning xossalari tadqiqiga doir..........301

**Axmedov Rafael Sharifovich.** Ayzek Azimovning "Po'lat g'orlar" asarida inson va robot o'zaro munosabatining dinamikasi..........304

**Siddiqova Osiyo Normurod qizi.** Komediya va komizmning ilmiy nazariy talqinlari: o'zbek adabiyoti misolida..........308

**Dovletov Shukurulla Atanazarovich.** Lingvomadaniy jihatdan latifalar tarjimasining funksional tipologiyasini ishlab chiqish..........312

**Soqiyeva Shirin Shokirovna.** Olam manzarasi, olamning kognitiv manzarasi, olamning lisoniy manzarasi va konsept..........322

**Panayeva O'g'iljon Bobojonovna.** Zamonaviy o'zbek she'riyatini o'qitishning innovatsion metodik yondashuvlari..........325

**Aliqulova Dildora. Sunatova Sitora.** Jeyn Ostenning "Mag'rur va xurofot" asarida xarakter nutqining lingvistik va stilistik xususiyatlari..........336

**Yuldasheva Laylo Ulug'bekovna.** XIX asr rus adabiyotida sharq obrazi va uning o'zbek adabiyotidagi aksi..........340

**Shodmonova Sayyora.** Tarixiy o'lchov birliklarining semantik qayta talqini: "Boburnoma"dan "Babur-nama" tarjimasigacha..........343

**Халикова Эльянора Сергеевна.** Пространство как элемент художественного своеобразия романа Л. Соловьёва «Повесть о Ходже Насреддине»..........360

**Nazarova Namuna Abdumajitovna.** Sirojiddin Sayyid she'riyatida tashbeh san'atining o'rni..........376

**Рахманова Альбина Ходжаевна.** От экзотики к диалогу: трансформация коранического нарратива в русской поэзии XIX века..........380

**Matkarimova Nargiz Muxamataminovna.** Zamonaviy xitoy tilida ritorik so'roq gaplarning iboralar orqali ifodalanishi haqida..........406

**Muxammeddin Bauetdinov.** Abdulla Oripov va Ulmambet Xo'Janazarov falsafiy uslubidagi mushtaraklik..........419

**Allambergenova Patima.** Xalq qo'shiqlarining tarixiy va badiiy ahamiyati..........429

**Razoqova Kumush Sadriddinovna.** Ingliz tilidagi madaniyatga oid atamalarning leksik tahlili..........443

**Atamuradov Sherzod Rahmatullayevich.** Inklyuziv muloqotda kommunikativ strategiya va nutqiy taktikaning namoyon bo'lishi..........445

**Saparova Dilafruz Muxiddin q.** Mark Tvenning "Tom Soyyerning sarguzashtlari" va G'afur G'Ulomning "Shum bola" asarlarining qiyosiy tahlili.476

**Sobirova Nazira G'anijon qizi.** O'zbek tili imlo qoidalarining lingvistik ta'minot sifatidagi o'rni va ahamiyati..........490

**Sobirova Zarnigor G'anijon qizi.** Transformer modellari yordamida o'zbek tili matnida tinish belgilarini tiklash..........503

**Babadjanov Farxad Kurbanbayevich.** Hujjatchilikning kognitiv talablari..........548

**Ruzimurodov Azizbek Shonazarovich.** Navoiy viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotini yoritishda matbuot organlarining o'rni..........551

**Madrimova Zamira G'aniy qizi.**Oziq-ovqat pragmatonimlarini yaratishning lingvistik va ijtimoiy asoslari..........555

**Djabbarbergenova Miyirxon.** «Life / O'mir» konseptining ingliz va qoraqalpoq tillarida leksik birliklar darajasida verballashtirilishi..........561

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'42

# TURK VA O'ZBEK TILIDAGI O'SIMLIK NOMLARINING LISONIY HAMDA MADANIY TADQIQI

*Abdullayeva Gulandom Anvarovna, Oriyental universiteti turk tili o'qituvchisi*



https://orcid.org/0009-0007-8294-9365
e-mail: Gulisha1705@gmail.com

# LINGUISTIC AND CULTURAL STUDY OF PLANT NAMES IN THE TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

*Abdullayeva Gulandom Anvarovna, Turkish Language Instructor, Oriental University*

# ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАЗВАНИЙ РАСТЕНИЙ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Абдуллаева Гуландом Анваровна, преподаватель турецкого языка университета Oriental*

*Annotatsiya: Jahon tilshunosligining kognitiv lingvistika, til va madaniyat, til va tafakkur hamda til va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika va antropolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar tilni jamiyat, atrof-muhit hamda kishilarni o'rab turgan borliq bilan birgalikda tahlil etishni taqozo qilmoqda. Til umumbashariy qadriyat sifatida xalqning taqdiri, turmush tarzi, ma'naviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Ana shunda til va etnosni bir butun mohiyat sifatida tadqiq etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, qardosh turkiy tillarning leksikasini har tomonlama tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.*

*Kalit so'zlar: xalqlarning taqdiri, turmush tarzi, ma'naviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati, etnos, qardosh turkiy tillar.*

**Annotation:** *Modern research in cognitive linguistics, linguistic cultural studies, sociolinguistics, ethnolinguistics, and anthropolinguistics—fields related to the relationship between language and culture, language and thought, as well as language and society—requires analyzing language in connection with society, the environment, and the surrounding reality. As a universal human value, language is closely linked to the fate of a people, their lifestyle, spiritual wealth, cultural level, and national mentality. In this context, it becomes possible to examine language and ethnicity as a unified whole. Moreover, a comprehensive study of the lexicon of closely related Turkic languages remains one of the important issues that modern linguistics needs to address.*

**Keywords:** *fate of peoples, lifestyle, spiritual wealth, cultural level of the nation, mentality, ethnicity, related Turkic languages.*

**Аннотация:** *Современные исследования в области когнитивной лингвистики, лингвокультурологии, социолингвистики, этнолингвистики и антрополингвистики, связанных с взаимосвязью языка и культуры, языка и мышления, языка и общества, требуют анализа языка в единстве с обществом, окружающей средой и реальностью, которая окружает человека. Язык как общечеловеческая ценность тесно связан с судьбой народа, образом жизни, духовным богатством, уровнем культуры и менталитетом нации. Именно в таком аспекте появляется возможность рассматривать язык и этнос как единое целое. Кроме того, всестороннее изучение лексики родственных тюркских языков является одной из актуальных задач современного языкознания.*

**Ключевые слова:** *судьба народов, образ жизни, духовное богатство, культурный уровень нации, менталитет, этнос, родственные тюркские языки.*

KIRISH. Dunyo tilshunosligida inson suvrati va siyratini ifodalovchi birliklarga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, V.Ubiyko rus tilidagi inson xarakteri va tashqi ko'rinishini

bildiradigan sifatlarni, T.Metelkina esa ingliz tilidagi inson axloqini ifodalaydigan sifatlarni tadqiq etgan. Shuningdek, ingliz va rus tillarining lingvistik madaniyatlarida shaxs qiyofasini yaratishga imkon beradigan oʻziga xos ekspressiv-baholovchi birliklar tadqiqi ham amalga oshirilgan[1].

Til ilmiga birinchilardan boʻlib "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasini olib kirgan Y.L.Vaysberger "til oʻz egasiga boshqa tillardagidan farqli boʻlgan dunyoni umumiy koʻrish tarzini ato etishi", "ona tili hamda har bir shaxsning ruhiy shakllanishi oʻzaro chambarchas bogʻliqligi" va "shuning uchun ham tilshunoslik tillarini xalqlar madaniyatining koʻzgusi sifatida oʻrganmogʻi lozim" ekanligini alohida uqtiradi[2].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Turk va oʻzbek tillaridaga inson qiyofasini ifodalovchi fitomorf komparativ birliklarni qiyoslab tahlil qilishdan oldin mazkur terminlarga izoh berildi. Tilshunoslikda oraliq sohalarning paydo boʻlishi tabiiy ravishda gibridlashgan terminlarni yuzaga keltirdi. Shunday terminlardan biri sifatida fitomorf leksik birligini koʻrsatish mumkin.

Fitomorf hozirgi tilshunoslikning lingvomadaniy aspektdagi ishlarda tez-tez qoʻllanayotgan terminlardan biridir. Komparativ birliklar termini komparativistika qiyosiy tilshunoslik sohasining shakllanishi bilan yuzaga kelgan. Mazkur atamadagi komparativ soʻzi "qiyoslashni ifodalaydigan", "qiyoslash bilan bogʻliq boʻlgan" degan istilohiy tushunchaga ega[3]. Komparativ birlik esa oʻzida "qiyoslash vazifasidagi soʻz yoki ibora" maʼnosini anglatadi.

**MUHOKAMA.** Maʼlumki, insonlarning oʻxshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning oʻsishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalar avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinotni bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularni sirli va ilohiy kuch sifatida baholashi, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari natijasida vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy eʼtiqodga bogʻliq holda hayvonot, nabotot va koinotdagi mavjud narsalar jonzotlarga totemistik munosabatlar natijasida sher, arslon, yoʻlbars, qoplon, burgut, lochin, qirgʻiylar mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qargʻa, quzgʻunlar qonxoʻr, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullar goʻzal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, gʻuncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini goʻzal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilar xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilgan va bu holat ogʻzaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat oʻzini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bogʻlashi, yaʼni, qiyoslashi, oʻxshatishi, sifatlashi kabilar bilan bogʻliq. Ular tilimizdagi koʻplab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos boʻlgan.

Oʻzbek tilshunosligida ham til va madaniyat bogʻliqligi masalalari eʻtibordan chetda qolgan emas. Xususan, N.Mahmudovni koʻrsatishicha: "Til va madaniyat deganda, koʻpincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki oʻrindagi madaniyatning aynanligini aslo koʻrsatmaydi[4]. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, oʻzbek va turk tillaridagining fitonomik manbalarning qiyosiy tahlili oʻsimliklar dunyosi bilan bogʻliq birliklarning inson obrazini gavdalantirishida umumiy va oʻziga xos xususiyatlar mavjudligini koʻrsatdi. Har ikki til tafakkurida inson ijobiy xususiyatlarini tavsiflashda, asosan, meva va mevali daraxt nomlariga tayanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa koʻproq daraxtning kesilgan tanasi, oʻtin yoki toʻnka bilan aloqador birliklarga murojaat qilinadi.

Insonning koʻrinishi va tabiatini sifatlovchi hamda ochib beruvchi birliklar tahlili uzoq yillardan buyon tilshunoslarni qiziqtirib keladi. Ayniqsa, ushbu masala keyingi yillarda koʻproq lingvomadaniyatshunoslikning obyektiga aylandi. Fanda madaniyat tushunchasiga koʻplab yondashuvlar bor. Madaniyat keng maʻnoda – bu "Obyekt va qatʻiy belgilangan tartib-qoidalar yigʻindisi boʻlib, insonning xulq-atvori, xatti-harakatlari, olgan bilimlari, oʻzlikni anglash, dunyoning ramziy maʻnolarini tushunish va bilish shakllarini oʻz ichiga oladi". Shu jihatdan ham ayni muammoga ligvomadaniyatshunoslar diqqat qaratmoqda.

Bu yoʻnalishda rus, ingliz, fransuz, turk, oʻzbek tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus tilshunosi I.Voloshkinaning "Inson xarakteri" – frazasemantik maydon (fransuz tili materiali asosida)" mavzusidagi dissertatsiyasini koʻrsatish mumkin. Ushbu tadqiqotda inson xarakteri bilan bogʻliq birliklar dunyoning lingvistik tasvirining barqaror parchasi oʻlaroq koʻrib chiqilgan. Shuningdek, "inson xarakteri" tushunchasini lingvistik jihatdan

o'rganishga harakat qilingan, xarakter ruhiy va intellektual bog'liqligi tushuntirilgan. Ishda yozilishicha, shaxs fe'l-atvori ona tilida so'zlashuvchilar ongida ko'p marotaba bilvosita, shaxs tomonidan ifodalangan xatti-harakatlarning murakkab komplekslarini kuzatish orqali aks ettirilgan aqliy obyektlardir. Tahlil qilingan frazeologik materiallar insonga xos xususiyatlar, uning ruhiy va emotsional holatlari, jismoniy harakatlari, odamlar bilan munosabatlari va boshqalar atrofida to'plangan.

G.Vatletsov zoomorf lug'aviy birliklar tizimi va uning inglizcha-ruscha ekvivalentligini o'rganish asnosida zoonimlarning zamonaviy ishlab chiqarish va kasbiy sohadagi foydalanish jihatlariga ham e'tibor qaratadi.

**NATIJALAR.** Lab gilosga o'xshatilish asnosida ko'z charosga, ya'ni uzumning qora rangli navi – charosga qiyoslanmoqda. Turklarda esa "qorachadan kelgan odam" ta'rifida "üzüm gibi" o'xshatishi qo'llanadi va bunda qora rangli uzum ma'nosi faollashtirilgan. Shuningdek, *'çöpsüz üzüm' yakın akrabaları hayatta olmayan kişi, üzüntü verici bir şeymiş gibi dursa da özellikle zengin koca arayan hanımlar için çift katlı ekmek kadayıfı durumudur. Cho'psiz uzum* birikmasi hech kimi yo'q yolg'iz ayolni ifoda etadi. *Üzüm gibi* turklarda qorachadan kelgan ma'nosida keluvchi bu metafora turk tilida asosan qorachadan kelgan qariya kishini bildirsa, o'zbek tilida bu ko'rinish uzumning quritilgani *mayizday* ifodasi yordamida beriladi.

Turk tilida *ayva göbekli* metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva - bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo'llanadi. O'zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, "qorni qopday" yoki "tarvuz yutib olganday" o'xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o'rin tutadi. Zaytun qora bo'lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo'lgani uchun *zeytin gibi* ("zaytun kabi") o'xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta'riflashda ishlatiladi.

Turk tilida "biror ishni bitirish uchun yopishib olgan odam, kishilarni ketidan qolmaydigan kishi"ga nisbatan *sarmaşık gibi* komparativi yordamida aks ettiriladi. O'zbek tilida ham ayni holatdagi inson chirmoviq yoki pechak o'ti fitonimi vositasida ifodalanadi. O'zbek tilidagi *chirmovuqqa o'xshab yopishib oldi* birikmasi xira, sur, shilqim odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Turk tilida "achchiq so'zlarni so'zlaydigan, ya'ni og'zidan yomon gap tushmaydigan odam"ga nisbatan *diken dilli* (tikon tilli) birligi qo'llanadi. Bundan tashqari *biber dilli* komparativi tili achchiq ma'nosida keladi. Bu har ikkala tilda o'xshash vositalar yordamida beriladi. Biber//qalampir, u achchiq bo'lgani uchun tili *fidan gibi* birligi bo'lib, u "niholdek" ma'nosida "katta hayotga endi qadam qo'yayotgan odam"ga nisbatan ishlatiladi. Turklarda bo'yi novcha, ozg'in kishilarga ham *fidan gibi* yoki *dalfidan boylu* birikmasi ham qo'llanadi. *Dalfidan boylu* birikmasi turk tilida "fidan" – "nihol" ma'nosini beradi, "dal" esa "shox" demakdir. Bu birikma turk tilida qotmadan kelgan, novcha bo'yli ma'nosini beradi: *Kim der ki bu fidan boylu kız iki çocuk anasıdır*. (Kim ham ishonadi bu navnihol qizning ikki farzandi borligiga). Ba'zi o'zbek tilidagi *terakdek* o'xshatishli birikmasiga ham to'g'ri keladi.

**XULOSA.**Turk va o'zbek olam lisoniy manzarasida gul, o't-o'lan, sabzavot, poliz ekinlari bilan bog'liq birliklar inson tasvirini aks ettirishda eng faol fitonimlar sifatida keng qo'llanadi. Kishining ijobiy xususiyatlarini ta'riflashda ko'proq gullar bilan bog'liq fitonimlardan foydalanilsa, insonning salbiy qiyofasini ifodalashda esa aksariyat hollarda, o't-o'lan va poliz ekini nomlari qo'llanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Djumabayeva J. va boshqalar. Doston matnidagi zoomorfizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari // "Oriental Art and Culture" scientific-methodical journal, 2020. – B. 137-143.
2. Marufova Z. O'zbek mumtoz she'riyatida zoonimlar vositasida go'zallik ifodalash // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific journal 1(3), 2021. – B. 307-311.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. I tom. – Тошкент, 1960. – B.311.
4. Абдужабборова Ф. "Қутадғу билиг"даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика // Филол. фан. ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 2011. – Б.162.